XABARNOMA

Jamiyatning 2019-2020-yillar bo‘yicha konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari (MXXS asosida) “GLOBAL-AUDIT” MCHJ auditorlik tashkiloti tomonidan Xalqaro audit standartlariga muvofiq audit tekshiruvidan o‘tkazilgan.

Biroq, Jamiyatga qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larni jalb qilish uchun Xalqaro va xorijiy hamkorlarni jalb qilib, ichki va tashqi korporativ obligatsiyalarni chiqarish maqsadida, moliyaviy hisobotlarni xalqaro nufuzga ega auditorlik kompaniyasi tomonidan auditorlik tekshiruvdan o‘tkazish talabi qo‘yilgan.

Jumladan, xalqaro investorlar talabi bo‘yicha, jamiyatning oxirgi uch yillik (2019-2021) moliyaviy faoliyatini xalqaro audit standartlari bo‘yicha audit o‘tkazish uchun xalqaro maqomga ega “Grand Thornton” MCHJ auditorlik tashkiloti jalb etilib, hamkorlikda shartnoma tuzildi.

Hozirda Jamiyatning 2019-2020-yillar moliyaviy faoliyati yakunlari bo‘yicha ikkita auditorlik tashkiloti hisobotlarida nomutanosiblik yuzaga kelmasligi sababli, “GLOBAL-AUDIT” MCHJ auditorlik tashkilotining Xalqaro audit standartlari asosidagi auditorlik xulosasi va hisobotlari qaytarib olinganligini, shuningdek, 2019-2020-yillar moliyaviy faoliyati yakunlari bo‘yicha “Grand Thornton” MCHJ auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasi hisobga olinishini ma’lum qilamiz.